

Bo‘Lajak «Texnologiya» Fani O‘Qituvchilarining Kasbiy Kompetensiyalarini Auditoriya Mashg‘Ulotlarida Rivojlantirish

Turayev Doniyor Amirovich¹, Mingqobilova Nasiba Mamasobir qizi²

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak «Texnologiya» fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini auditoriya mashg‘ulotlarida rivojlantirish metodikasiga oid mulohazlar bayon etilgan.

Kalit so‘z: kasb, kompetensiya, tehnologiya, talabalar, axborot, mutahassis, ishlab chiqarish, tadqiqot, muhandislik, kompyuter grafikasi

So‘nggi bir necha yil ichida raqamlashtirish jarayonida elektron resurslardan foydalanish ko‘plab mamlakatlar sanoatida ham, davlat sektorida ham asosiy tendensiyalardan biriga aylandi. Raqamlashtirilgan elektron ta’lim resurslaridan an’anaviy mahsulot va xizmatlarni yaxshilaydigan yoki almashtiradigan iqtisodiyot va jamiyatning turli sohalarida raqamli texnologiyalardan ommaviy foydalanishga o‘tishni belgilaydi. Juhon Iqtisodiy Forumi ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli transformatsiya innovatsiyalar uchun bir necha trillion dollarlik ulkan salohiyatni taqdim etadi va ko‘plab sohalarga va ijtimoiy tendensiyalarga (masalan, fan, hukumat va h.k.) taalluqlidir. Jamiyatning raqamli transformatsiyasi nafaqat sanoat va iqtisodiy tuzilmalarni sezilarli darajada o‘zgartiradi, balki fuqarolik, tadbirkorlik, davlat va davlatlararo aylanmalarda yangi mazmun-mohiyatlarni ham joriy etadi.

Hozirgi vaqtida raqamlashtirilgan ta’lim dasturlaridan foydalanish jadal rivojlanmoqda. Zamonaviy oliy ta’lim muassasalarini yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish amaliyotlari, ta’lim tizimlarini rivojlanish modellari va jarayonlarini o‘zgartirmoqda. Oliy ta’lim muassasalaridagi raqamli transformatsiya oliy ta’lim oldiga qo‘yilgan maqsad yo‘lida yanada ilg‘or va samaraliroq yangi uslub va amaliyotlarni ishlab chiqishdan iborat. Ushbu dissertatsiya ishimiz tadqiqoti raqamlashtirilgan ta’lim resurslari va oliy ta’lim muassasalarini bog‘laydi. Oliy ta’lim muassasalarida raqamlashtirilgan ta’lim resurslaridan foydalanishni joriy etishning mavjud modellari tahlil qilingan holda tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, raqamlashtirilgan ta’lim resurslarinidan samarali foydalanish natijasida ta’limda transformatsiyaga intilish yo‘lida oliy ta’lim muassasalarini duch keladigan muammolar ham anchagini.

So‘nggi o‘n yillikda raqamlashtirilgan ta’lim resurslaridan foydalanish, o‘quv materillarini ta’lim oluvchilarga yetkazishda elektron ta’lim va virtual vositalardan samarali foydalanish jadal rivojlandi. Hozirgi vaqtida raqamlashtirilgan ta’lim resurslari odamlar va tashkilotlar hayotning barcha jihatlari va o‘lchovlariga ta’sir qiluvchi evolyusion jarayon sifatida qaraladi. Mavjud adabiyotlarni ko‘rib chiqish raqamlashtirilgan ta’lim resurslarini amaliyotga tadbiq etish bo‘yicha keng ko‘lamli qarashlarni ochib beradi, natijada bir qator talqinlar, g‘oyalar va qarashlar paydo bo‘ladi.

Tadqiqot ishimiz davomida bo‘lajak «Texnologiya» fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan didaktik vositalarga to‘xtalib o‘tamiz:

1. Elektron o‘quv qo‘llanma. Ushbu elektron o‘quv qo‘llanma Texnologik ta’lim praktikumi fanini bevosita o‘z ichiga qamrab oladi. Elektron o‘quv qo‘llanmada fanga oid o‘quv ishchi dastur, fanni o‘zlashtirish uchun tavsiyalar, nazariy va amaliy ma’lumotlar, nazorat savollari, test topshiriqlari, ilovalar, mustaqil ta’lim mavzulari va metodik ko‘rsatma kabi ma’lumotlar keltirilgan. Mazkur

¹ Tabiiy va aniq fanlar fakulteti, Texnologiya va geografiya kafedrasи o‘qituvchisi

² Texnologik ta’lim yo‘nalishi talabasi



elektron o‘quv qo‘llanma orqali talabalar mustaqil ravishda bilim olishlari, amaliy ishlar bajarishlari, mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarini bajarishlari mumkin bo‘ladi.

2. Mobil ilova. Ushbu mobil ilovada Texnologik ta’lim praktikumi fani bo‘yicha mavzularga oid qisqa hajmli videoroliklar o‘rin egallagan. Mobil ilova orqali talaba o‘zi qiziqqan amaliy ishni uyda mustaqil ravishda bajarishi mumkin bo‘ladi. Ilovada keltirilgan videoroliklarda ishni boshlash tartibi, kerekli asbob-uskunalar va ish bajarish ketma-ketligi to‘liq yoritilgan. Bundan tashqari ilovada, fan mavzulari, nazorat savollari, ilovalar, test topshiriqlari va glossarriy keltirilgan. Mobil ilovaning afzalllik tomoni shundaki QR kod orqali mobil telefonga yuklab olish imkoniyati mavjud.

3. O‘quv qo‘llanma: Texnologik ta’lim praktikumi fani (Servis xizmati) bo‘yicha barcha ma’lumotlar ushbu o‘quv qo‘llanmada keltirilgan. Bunda: fanning servis xizmati bo‘yicha amaliy mashg‘ulot mavzulari, nazorat savollari, test topshiriqlari, glossariy hamda ilovalar keltirilgan.

Asrlar davomida oliy ta’lim muassasalari, bilim yaratish va tarqatish shuningdek jamiyat rivojini ta’minlashda asosiy drayver vazifasini bajarib kelgan. Zamonaviy oliy ta’lim muassasalari taraqqiyot yo‘lida yangi texnologiyalarni o‘zlashtirib, o‘z imidjlarini yaratish hamda ta’lim samaradorligini oshirish asosida ta’lim tizimini tashkil etish amaliyotlari, faoliyat modellari va jarayonlarini o‘zgartirmoqda. Oliy ta’lim muassasalaridagi raqamlashtirilgan ta’lim resurslaridan foydalanish natijasida ta’lim transformatsiyasini ta’mi nlash oliy ta’lim oldiga qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun yanada ilg‘or va samaraliroq yangi uslub va amaliyotlarni ishlab chiqish bilan bog‘liqdir.

Bir qator tadqiqotlar, shuningdek, raqamli transformatsiya faqat biznes jarayonlariga texnologiyani kiritish bilan bog‘liq emasligini ta’kidlaydi. Aksincha, raqamli transformatsiya manfaatdor tomonlarning ehtiyojlari va talabalarini tahlil qilish va talabalarning bilim ehtiyojlariga mos keladigan ta’lim va tadqiqot xizmatlarini taqdim etishni ta’minalash jarayonidir. Butun dunyo bo‘ylab ta’lim muassasalarida raqamli transformatsiya bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda, bu esa talabalarning bilim olishini raqamli vositalar bilan qo‘llab-quvvatlashni ta’minalaydi.

Ta’lim tizimida bilimlar jamiyatdagi o‘z mavqeini qanday boshqarishi haqidagi xavotirlar kuchaydi. Oliy o‘quv yurtlari raqamli transformatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan muhim muammolarga nafaqat o‘qish va o‘qitish jarayonida raqamli vositalar va texnologiyalarni joriy etish, balki mavjud tizimlar, jarayonlarni o‘zgartirish va o‘zlashtirish texnologiyalarini kiritish muammolariga ham duch kelmoqda. Aloqa usullari va kanallari va institutda ishtirok etadigan boshqa barcha akademik va ma’muriy faoliyatlar raqamli transformatsiya jarayonlarida qo‘llaniladi.

Talabalarning o‘zgaruvchan ta’lim ehtiyojlarini qondirish uchun bir qator raqamli vositalar va texnologiyalar ishlab chiqilgan. Butun dunyo bo‘ylab virtual ta’lim platformalari turli xil o‘rganishning yangi simulyatsiya usullari bilan yaratilgan. Biroq, bu davr talab qilayotgan raqamli transformatsiyaga erishish uchun oliy ta’lim muassasalari tomonidan aniq rivojlanishga qaratilgan manzilli konsepsiylar asosida tizimli faoliyatni tashkil etishlari talab etiladi. Ta’lim muassasalarining xizmat ko‘rsatish va ta’lim tizimini innovatsiya qilish va takomillashtirish maqsadida raqamli texnologiyalarni joriy etish zarurati bo‘lgan barcha sohalarni hisobga olgan holda raqamli transformatsiyani maksimum darajada ko‘rib chiqish zarur.

Foydalilanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g’risidagi”gi (2019 yil 29 oktabr) Qonuni // <https://lex.uz/doc/4571490>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g’risida”gi (2017 yil 7 fevral) Фармони // https://lex.uz/pages/getpages.aspx?list_id=3107036#3109146
3. Nishanova S. “Komil inson tarbiyasi”, Toshkent, “Istiqlol”, 2003 y. 2. O‘. Tolipov va boshqalar “Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot”. T., “Fan”, 2005 y.



4. Vyazankova V.V. Axborot va ta'lif muhit shartlarida tayyorlanishning texnik yo'nalishlari bo'yicha bakalavranlarning grafik kompetensiyasini shakllantirish // Fan va ta'lifning zamonaviy muammolari. - 2021 yil - 2-son; URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=30663> (kirish 09.12.2022).
5. Turayev Khumoyiddin Abdugafforovich, Sattarov Shavkat Yuldashevich, Tashkuziyev Bakhridin Muhiddinovich, Turayev Doniyor Amirovich - Project Development Of Competence Of Future Drawing Teachers Using Geometric Reflection Techniques- Project Development Of Competence Of Future Drawing Teachers Using Geometric Reflection Techniques. 13791-13800. 2019/12/31.
6. Odinayev A., Qalandarov R., Xolmatov B. PROBLEMS OF IMPROVING THE TECHNOLOGY OF REPAIRING BLOCKS AND CYLINDER LINERS //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES. – 2023. – Т. 4. – №. 1. – С. 97-99.
7. Rozimurod, Q., Kocharovich, O. A., & Ogli, Y. S. F. (2023). ABOUT VIBRATION NOISE PROBLEMS IN MACHINERY AND MACHINES USED IN COTTON GINNING FACTORIES (CCP). Science and innovation, 2(A4), 220-226.
8. Гадаймуратов, Ш. М. (2022). БЎЛАЖАК ТЕХНОЛОГИК ТАЪЛИМ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. TALQIN VA TADQIQOTLAR, 5.
9. Dusyarov, X. C., Odinayev, A. K., & Kucharov, S. A. (2021). CRITERIA FOR ASSESSING STUDENT KNOWLEDGE IN TECHNOLOGY CLASSES. Academic research in educational sciences, 2(3), 1168-1173.
10. Тураев Дониёр Амирович ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ И МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ГРАФИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ Modern Scientific Research International scientific journal (ISSN: 1817-0315) Journal 2023 Volume 1 Issue 3
11. Turayev Doniyor Amirovich BO'LAJAK TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHISINING KASBIY GRAFIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI VA MODELI Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami 19-20-may 2023-yil

